

AHMAD YASSAVIYNING TURKISTON MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI

Alisherova Asilabonu Absalomovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi.

Shaxnoza Norkulova

Ilmiy rahbar: TISU dotsenti.

Termez (Uzbekistan) Phone: +99890-519-96-33.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17171391>

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy xalqlarning buyuk mutasavvuf shoiri Ahmad Yassaviy faoliyati, ilmiy va adabiy merosi, "Devoni hikmat" asari xususida fikr yuritiladi.

Tayanch so'z va iboralar: Ahmad Yassaviy, tariqat, "Devoni hikmat", Sulton Ahmad Haziniy, Amir Temur, "Ilmi laduniy", Turkiston madaniy hayoti.

Turkiy xalqlarning mutasavvuf shoiri XI asrda Sayramda, Shayx Ibrohim xonadonida tavallud topgan. Xoja Ahmad Yassaviy o'z ona yurtini asarlarida "Ul muborak Turkiston"¹ deb tilga olgan. Yassaviy nuqtai nazarida hikmat – "Ilmi laduniy" ya'ni ilmi g'aybu haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf aylash mazmuniga ham ega. Yassaviyning o'zi "Devoni hikmat" nomi bilan biror bir kitob yaratmagan. Ushbu nodir asar murid va izdoshlari tomonidan tartib berilgan.

Lekin bu narsa hikmat majmuasining Yassaviyga aloqasi yo'q degan da'voni ilgari surishga asos bo'la olmaydi.

"Devoni hikmat"dagi barcha she'rlar ham Yassaviyga mansub emas deyiladi ayrim manbalarda, unga Yassaviy izdoshlarining ham ijod namunalari kiritilgan. Ammo Yassaviyning o'nlab izdoshlaridan hech biri ustozlari boshlagan g'oyaviy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy va mafkuraviy yo'nalishni o'zgartirmagan. Buni Yassaviy hayoti, tariqati va ijodiyotida bahs tariqasida yuritilgan o'nlab qadimiy manbalar, ayniqsa Sulton Ahmad Haziniyning "Javohir ul abror min amvojil bihor" asari ham to'la tasdiqlaydi.

Mustaqillik arafasida xususan, O'zbekiston istiqloлга erishgandan so'ng Yassaviyshunoslikda yangi davr boshlandi. Dastlab turli gazeta va jurnallarda "Devoni hikmat" dan namunalar e'lon qilingan bo'lsa, 1990-1992-yillarda uning 2 ta mustaqil nashri chop etildi.

Ushbu nashrlar nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa turkiy davlatlarda ham nashr qilindi. "Devoni hikmat" ning 20 dan ortiq nusxalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik Instituti jamg'armasida saqlanadi. Asar qo'lyozmalaridan eng qadimgisi XVII asrga tegishlidir. Yassaviy chig'atoy tilida ham ijod qilgan.

"Yassaviya" tariqatidan keyin ikki yirik tariqat paydo bo'lgan; birinchisi- "Naqshbandiya" va ikkinchisi "Bektoshiya" tariqatlari hisoblanadi. Tasavvufdagi boshqa tariqatlarda bo'lgani kabi "Yassaviya" tariqatida o'z qoidalari ya'ni odoblari yaqqol bayon etiladi.² Rivoyatlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy 63 yoshga yetgach "Chilla"ga kirgan, qolgan umrini esa toat ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, riyozatlar chekib, yer ostida o'tkazgan.

Bu rivoyatga ko'ra 125 yil yana boshqa rivoyatlarda qaraganda 133 yil umr ko'rib, hijriy 562-yilda vafot etgan. Ahmad Yassaviy O'rta Osiyo madaniyati tarixida ilk turkiyzabon shoir sifatida barchaga ma'lum va mashhurdir³.

Uning tasavvufni targ'ib etuvchi turkiyda yozilgan she'rlari tilining xalqqa yaqinligi, ohangdorligi bilan ham ajralib turadi.

¹ И.Хаккулов, Н.Хасан, А.Бектош. Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёти, ижоди ва анъаналари. -Тошкент: 2001. 10-15 б

² Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. — Toshkent: Istiqlo, 1999. — 106 b

³ И.Хаккулов. Аҳмад Яссавий ҳикматлари. – Тошкент: 110-б

Yassaviyga “Qul Xoja Ahmad”, “Xoja Ahmad Yassaviy”, “Ahmad Ibn Ibrohim”, “Sulton Xoja Ahmad Yassaviy”, “Yassaviy miskin Ahmad”, “Miskin Yassaviy”, “Xoja Ahmad”, “Ahmad”, “Ahmadiy”, “Qul Ahmad”, “Miskin Ahmad” kabi taxalluslar qo‘yilgan.⁴

“Yassaviya” tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”ida mufassal bayon etilgan. Unda “Yassaviya” ta’limotidagi poklik, halollik, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, o‘z qo‘l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taola visoliga yetishish yo‘lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg‘or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

Ahmad Yassaviy nafaqat O‘rta asrlar Turkistonning, balki butun musulmon sharqining ma’naviy-ma’rifiy hayotida muhim o‘rin egallagan buyuk allomadir. Uning ilmiy merosi va tasavvufiy falsafasi inson kamoloti, ruhiy tarbiya va komil insonni voyaga yetkazish g‘oyalari bilan ajralib turadi.

Ayniqsa “Devoni hikmat” asari Ahmad Yassaviy ijodining eng yorqin namunasi bo‘lib, unda zamonasining ijtimoiy-ma’naviy, diniy va axloqiy hayoti, xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va qadriyatlari aks etgan. Ushbu maqolada Ahmad Yassaviyning ilmiy-ma’naviy merosi hamda “Devoni hikmat” asarining O‘rta asrlar Turkiston madaniy hayotidagi o‘rni atroflicha tahlil qilindi.

Dastlab, Ahmad Yassaviy hayoti, uning ilm olamidagi o‘rni, Yassaviya tariqat va tasavvuf maktabi asoschisi sifatidagi faoliyati haqida ilmiy ma’lumotlar berildi. Keyinchalik, “Devoni hikmat” asari mazmuni, badiiy va falsafiy qimmat, xalq ongini yuksaltirishdagi o‘rni insonparvarlik va axloqiy g‘oyalarni targ‘ib etishdagi ahamiyati keng yoritib berildi.

Bu asar o‘z davrida diniy-ma’rifiy, axloqiy ta’limiy va badiiy-adabiy manbaa sifatida qadr topgan bo‘lsa bugungi kunda ham o‘z ma’naviy qadriyatini yo‘qotgani yo‘q. Ahmad Yassaviyning hikmatlari o‘zining sodda va xalqona tili, ravon uslubi, falsafiy mazmuni bilan keng xalq ommasiga tushunarli bo‘lgani bois, Turkiston va unga tutash hududlarda keng tarqalgan va xalq ma’naviyatini shakllantirishga katta hissa qo‘shgan. Maqola davomida “Devoni hikmat” asarining O‘rta asrlar madaniy hayotidagi tutgan mavqei, uning xalq og‘zaki ijodi va tasavvufiy an‘analari bilan bog‘liqligi, diniy-ta’limiy faoliyatdagi o‘rni atroflicha ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И.Хаккулов, Н.Хасан, А.Бектош. Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёти, ижоди ва анъаналари. – Тошкент: 2001.
2. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. — Toshkent: Istiqol, 1999. — 180 b.
3. И. Хаккулов. Аҳмад Яссавий ҳикматлари. –Тошкент: 1991.
4. Ф.Ашрафхўжаев, М.Хўжаев, З.Жўраев. Хожа Аҳмад Яссавий ва Яссавийлар тарихи. – Тошкент: 2021.

⁴ И.Хаккулов, Н.Хасан, А.Бектош. Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёти, ижоди ва анъаналари. – Тошкент: 2001. 9-15 б